



# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## XORAZM VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2024- yil 1- mart holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya Vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*


So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024- yil 1- mart holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 26 044 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 22 766 ta).

## Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar


(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2024- yil yanvar-fevral oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024- yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 234 taga ko'payganligini ko'rish mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha oxirgi uch yil mobaynida yangi tashkil etilgan ma'suliyati cheklangan jamiyatlar soni 203 taga, xususiy korxonalar - 34 taga ko'paygan.


## Hududlar kesimida

Urganch sh.	148	2,9%
Shovot t.	98	5,8%
Urganch t.	88	3,1%
Bog'ot t.	86	4,8%
Hazorasp t.	70	4,3%
Gurlan t.	69	4,1%
Xiva t.	57	3,2%


Yangiariq t.	56	3,8%
Qo'shko'pir t.	56	2,6%
Xonqa t.	55	2,8%
Xiva sh.	51	2,7%
Yangibozor t.	41	3,4%
Tuproqqal'a t.	38	5,2%

2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


2024- yil 1- mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davriga nisbatan 6 318 taga oshganligini quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: savdoda – 5 303 tadan 8 843 taga (o'sish 3 540 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 1 915 tadan 2 543 taga (o'sish 628 ta), sanoatda – 3 329 tadan 3 827 taga (o'sish 498 ta).

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	5 159	Gurlan t.	1 701
Urganch t.	2 822	Shovot t.	1 701
Qo'shko'pir t.	2 143	Hazorasp t.	1 618
Xonqa t.	1 986	Yangiariq t.	1 478
Xiva sh.	1 911	Yangibozor t.	1 218
Bog'ot t.	1 802	Tuproqqal'a t.	730
Xiva t.	1 775		

2024- yil yanvar-fevral oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib berish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida, yildan-yilga ularning investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024- yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 883 ta bo'lib, shundan:


- mikrofirma va kichik korxonalar - 876 tani;
- yirik korxonalar - 7 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Urganch sh.	137	3,1%	Xiva t.	55	3,5%
Shovot t.	97	6,6%	Yangiariq t.	55	4,2%
Bog'ot t.	84	5,3%	Xonqa t.	54	3,1%
Urganch t.	83	3,3%	Xiva sh.	50	2,8%
Hazorasp t.	69	5,0%	Yangibozor t.	39	3,7%
Gurlan t.	68	4,6%	Tuproqqal'a t.	37	6,1%
Qo'shko'pir t.	55	2,9%			

2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- mart holatiga 22 905 taga yetib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 137,6 foizni tashkil etdi (6 259 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,6 foiz, sanoat – 16,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 11,0 foiz, qurilish – 7,3 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 7,0 foiz, tashish va saqlash – 4,5 foiz, axborot va aloqa – 1,6 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,3 foiz, boshqa turlari – 11,0 foiz.


## Hududlar kesimida

Urganch sh.	4 460	Gurlan t.	1 484
Urganch t.	2 548	Shovot t.	1 467
Qo'shko'pir t.	1 917	Hazorasp t.	1 391
Xonqa t.	1 762	Yangiariq t.	1 299
Xiva sh.	1 757	Yangibozor t.	1 051
Bog'ot t.	1 582	Tuproqqal'a t.	609
Xiva t.	1 578		




2024- yil yanvar-fevral oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


2024- yil yanvar-fevral oylarida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 220 tadan 300 taga (o'sish 80 taga), sanoatda 132 tadan 188 taga (o'sish 56 taga), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 27 tadan 69 taga (o'sish 42 taga), qurilishda – 28 tadan 46 taga (o'sish 18 taga) ko'paydi.

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	137	3,1%	Xiva t.	55	3,5%
Shovot t.	97	6,6%	Qo'shko'pir t.	53	2,8%
Bog'ot t.	84	5,3%	Xonqa t.	52	3,0%
Urganch t.	82	3,2%	Xiva sh.	49	2,8%
Gurlan t.	68	4,6%	Yangibozor t.	39	3,7%
Hazorasp t.	68	4,9%	Tuproqqal'a t.	37	6,1%
Yangiariq t.	55	4,3%			

2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Urganch shahrida (19,4 foiz), Urganch tumani (11,1 foiz), Qo'shko'pir (8,4 foiz), Xiva shahri (7,7 foiz) va Xonqa (7,7 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	4 408	Gurlan t.	1 481
Urganch t.	2 532	Shovot t.	1 461
Qo'shko'pir t.	1 908	Hazorasp t.	1 382
Xiva sh.	1 752	Yangiariq t.	1 291
Xonqa t.	1 752	Yangibozor t.	1 046
Bog'ot t.	1 574	Tuproqqal'a t.	606
Xiva t.	1 573		



## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar 2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda

### Hududlar kesimida


Gurlan t.	376
Qo‘shko‘pir t.	301
Urganch t.	296
Xonqa	273
Xiva t.	227
Yangiariq t.	194
Bog‘ot t.	193
Shovot	162
Yangibozor t.	162
Tuproqqal‘a t.	120
Hazorasp t.	86
Xiva sh.	78
Urganch sh.	75



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


### Baliq ovlash va akvakultura



2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda


## Hududlar kesimida

Urganch sh.	712
Urganch t.	418
Qo'shko'pir t.	390
Xonqa t.	353
Xiva t.	270
Shovot t.	267
Xiva sh.	234
Bog'ot t.	233
Hazorasp t.	229
Gurlan t.	220
Yangiariq t.	186
Yangibozor t.	175
Tuproqqal'a t.	140



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi besh yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 115,0 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 14,7 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 97,7 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 92,5 foiz), 0,5 foizini tog-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish sur'ati 133,3 foiz), 1,4 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish sur'ati 96,3 foiz) va 0,4 foizini elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish sur'ati 106,7 foiz) tashkil etgan.



2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	385
Xiva t.	221
Urganch t.	206
Xiva sh.	166
Qo'shko'pir t.	158
Xonqa t.	111
Yangiariq t.	92
Shovot t.	82
Hazorasp t.	62
Bog'ot t.	57
Gurlan t.	57
Yangibozor t.	57
Tuproqqal'a t.	36



Qurilish sohasining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,8 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 94,5 foizni;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 19,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,6 foizni;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 24,3 foiz ulushni va 85,6 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

337



Fuqarolik  
obyektlarini qurish

411

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

942


Bino va  
inshootlar qurish



2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	1 633
Urganch t.	1 012
Bog'ot t.	754
Qo'shko'pir t.	675
Xiva sh.	666
Hazorasp t.	635
Shovot t.	628
Xonqa t.	568
Xiva t.	555
Yangiariq t.	547
Gurlan t.	519
Yangibozor t.	438
Tuproqqal'a t	213



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 8 823 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 65,0 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 105,4 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishi 23,6 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 108,1 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishi 11,4 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 118,7 foizni tashkil etdi.

**1 008**

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

**2 090**

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


**5 745**

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	399
Xiva sh.	272
Urganch t.	158
Xonqa t.	105
Gurlan t.	93
Shovot	92
Bog'ot t.	88
Qo'shko'pir t.	80
Xiva t.	76
Yangibozor t.	75
Yangiariq t.	73
Hazorasp t.	54
Tuproqal'a t.	40



2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2020- yilning mos davriga nisbatan 124,9 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'hlari, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 14,6 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 85,4 foiz ulushini tashkil etdi.

234

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 371

Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar






2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	115
Xiva sh.	44
Xonqa t.	34
Qo'shko'pir t.	32
Urganch t.	28
Yangiariq t.	24
Xiva t.	23
Gurlan t.	22
Shovot t.	22
Bog'ot t.	18
Yangibozor t.	12
Hazorasp t.	11
Tuproqqal'a t.	5



2024- yil 1- mart holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 22,3 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 122,5 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 34,1 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 95,7 foizni tashkil etdi.

Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 43,6 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 101,2 foizni tashkil etdi.






2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	209
Xiva sh.	53
Urganch t.	49
Xonqa t.	43
Gurlan t.	42
Hazorasp t.	37
Shovot t.	34
Xiva t.	33
Qo'shko'pir t.	31
Bog'ot t.	24
Yangiariq t.	22
Yangibozor t.	20
Tuproqqal'a t.	8



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi, ya'ni 525 tasi yoki 86,8 foiz ulushi kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

- sog'liqni saqlash yo'nalishiga 94,6 foiz korxonalar to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 102,3 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,6 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 91,7 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,8 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 110,0 foizni tashkil etdi.

11

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

22




572

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	215
Hazorasp t.	158
Xonqa t.	118
Urganch t.	113
Bog'ot t.	74
Qo'shko'pir t.	66
Shovot t.	65
Gurlan t.	62
Xiva sh.	54
Xiva t.	45
Yangiariq t.	29
Yangibozor t.	20
Tuproqqal'a t.	16




2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 4,0 foizni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 102,2 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 104,9 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishi 7,7 marta oshdi;
- havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 5,0 marta oshdi.



**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy  
shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**  
2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2024- yil yanvar-fevral oylarida, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


## Hududlar kesimida

Urganch sh.	99	Xiva t.	39
Urganch t.	62	Yangiariq t.	35
Gurlan t.	61	Tuproqqal'a t.	35
Bog'ot t.	59	Xiva sh.	31
Hazorasp t.	59	Xonqa t.	25
Shovot t.	44	Yangibozor t.	21
Qo'shko'pir t.	40		

2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan 22 905 ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 13 435 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich yashash va ovqatlanishda 121,3 foiz, savdoda 117,4 foiz, axborot va aloqada – 110,6 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 107,3 foiz, tashish va saqlashda – 106,6 foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	2 625	Xiva t.	917
Urganch t.	1 390	Yangiariq t.	885
Hazorasp t.	1 158	Xonqa t.	790
Qo'shko'pir t.	1 150	Shovot t.	661
Gurlan t.	1 045	Tuproqqal'a t.	524
Xiva sh.	984	Yangibozor t.	388
Bog'ot t.	918		




2024- yil yanvar-fevral oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Xususiy korxonalar** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

## Hududlar kesimida


Shovot t.	33	Xiva t.	3
Urganch sh.	22	Gurlan t.	3
Xonqa t.	15	Xiva sh.	2
Bog'ot t.	8	Yangiariq t.	1
Urganch t.	6	Hazorasp t.	1
Yangibozor t.	6		



2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 2024- yil 1- mart holatiga 4 541 tani tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 43,2 foiz, sanoat – 18,0 foiz, qurilish – 7,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 5,1 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 4,0 foiz, tashish va saqlash – 2,3 foiz, axborot va aloqa – 1,7 foiz, boshqa turlari – 11,8 foiz.


## Hududlar kesimida

Urganch sh.	1 163	Bog'ot t.	235
Urganch t.	555	Xiva sh.	232
Xonqa t.	485	Xiva t.	220
Shovot t.	462	Hazorasp t.	84
Yangibozor t.	366	Yangiariq t.	76
Gurlan t.	327	Tuproqqal'a t.	28
Qo'shko'pir t.	308		


2024- yil yanvar-fevral oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Oilaviy korxon** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxon ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxon ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxon faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

## Hududlar kesimida

Shovot t.	20	Xiva t.	13
Yangiariq t.	19	Xonqa t.	12
Xiva sh.	17	Yangibozor t.	12
Urganch sh.	16	Hazorasp t.	9
Bog'ot t.	15	Gurlan t.	4
Qo'shko'pir t.	15	Tuproqqal'a t.	2
Urganch t	15		

2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

190,1%


125,8%

125,1%

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

102,8%

97,3%



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- mart holatiga ko'ra 2020- yilning mos davriga nisbatan 1 713 taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi: savdoda – 789 tadan 1 847 taga (o'sish 1 058 taga), sanoatda – 793 tadan 1 156 taga (o'sish 363 taga), yashash va ovqatlanishda – 661 tadan 823 taga (o'sish 162 taga) korxonalar sonining o'sishi bilan izohlanadi.

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	620	Shovot t.	327
Urganch t	590	Yangiariq t.	324
Xiva sh.	526	Yangibozor t.	273
Xonqa t.	476	Hazoraspt.	137
Qo'shko'pir t.	440	Gurlan t.	95
Xiva t.	426	Tuproqqal'a t.	49
Bog'ot t.	415		

2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

182,9%


118,7%

99,4%

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

81,9%

90,3%



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Yetakchi o'rinni 131 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,7 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Xorazm viloyatiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkiya Respublikasi (ulushi 23,7 foiz), Turkmaniston (ulushi 14,5 foiz), Xitoy (ulushi 6,9 foiz) va Qirg'iziston Respublikasi (ulushi 3,8 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	53	Bog'ot t.	5
Urganch t.	10	Yangiariq t.	5
Xonqa t.	9	Qo'shko'pir t.	5
Xiva sh.	9	Hazorasp t.	5
Xiva t.	8	Yangibozor t.	5
Gurlan t.	7	Shovot t.	4
Tuproqqal'a t.	6		

2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 65 tasi qo'shma korxonalar, 66 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

*2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda*

## chet el korxonalar

## qo'shma korxonalar

30	Urganch sh.	23
4	Xiva sh.	5
2	Bog'ot t.	3
3	Gurlan t.	4
3	Qo'shko'pir t.	2
6	Urganch t.	4
4	Hazorasp t.	1
3	Tuproqqal'a t.	3
4	Xonqa t.	5
2	Xiva t.	6
1	Shovot t.	3
2	Yangiariq t.	3
2	Yangibozor t.	3



2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- sentabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish  
boʻlimi

Tel.: (62) 22-4-65-11